

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2003,2 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati - **117,2 %** ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **102,9 %** ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **44,0 %** ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – **75,3 %** ni, oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi – **24,7 %** ni tashkil qildi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2003,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining - 16,8 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishiga qo'shgan hissasi 86,1 punkt), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 21,9 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 5,6 punkt), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 16,6 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 6,3 punkt) va SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 28,1 % ga (o'sishga qo'shgan hissasi 2,0 punkt) o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 112,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ko'mir va lignit qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,6 martaga, tog'-kon sanoatining boshqa faoliyati - 1,6 martaga, tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar – 10,5 % ga va xom neft va tabiiy gaz qazib olish – 1,3 % ga oshgan.

Yanvar-sentyabr oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
-------------------------------	--	-------------------------------	-------------------

Toshko'mir, ming t.

83,8



155,7



Xom neft, ming t.

64,4



99,8



Shag'al, ming t.

11,5



2,4m



Osh tuzi, ming t.

24,5



4,5

18,4




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1725,4 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 116,8 % foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 35,5 % ni (2017 yil yanvar - sentyabr oylarida - 8,5 %), tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,1 % ni (89,5 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni (92,6 %) va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 9,0 %ni (15,0 %) tashkil etdi.

Yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta xom ashyosi – 2,9 martaga, makaron mahsulotlari – 2,3 martaga, beton – 2,0 martaga, paxta yog'i – 1,8 martaga, neft bitumi - 3,1 % ga va neft mahsulotlari – 8,7 % ga oshgan. Shu bilan birga tuz, bug'doy uni, non (600 gr), aroq, vino, medikamentlar, gazoyli (dizel yoqilg'i), mazut ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-sentyabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t.			
13766		40028	2,9m 
Paxta yog'i (tozalangan), ming t.			
4975		9185	1,8m 
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
10,41		9,09	87,3 
Un, t.			
80123		73741	92,0 
Aroq, ming l.			
1537,3		1411,4	91,8 
Beton, t.			
42521		86196	2,0m 



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 127,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,3 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida boshqa bug' va issiq suv hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga oshganligi kuzatildi. Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar hajmining (81,7 %) pasayganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 48,5 % ga, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 2,0 % ga oshganligi kuzatildi, axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar (7,0 mlrd so'm) yo'lga qo'yildi. Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar hajmining (91,7 %) ga pasayganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 882,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 2,9 % ga o'sishi ta'minladi. Jami sanoatdagi ulushi esa 44,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 24,3 % dan 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 24,7 % ga oshishi kuzatildi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 19,7 % ulushini), Jarqo'rg'on (21,5 %)

va Denov (14,1 %), Shorchı (10,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

davomi


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi


(viloyatning jami sanoat hajmiga nisbatan, foizda)



Shu bilan birga eng kam ulushi Muzrabet (1,7 %), Boysun (2,0 %), Oltinsoy (2,3 %), Uzun (2,9 %) va Angor (2,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida Qiziriq (2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 169,3 % ga), Angor (137,3 % ga), Sho'rchi (128,3 %), Qumqo'rg'on (124,6 % ga) va Denov (117,3 %) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi kuzatildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



Aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Qiziriq (2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 165,1 % ga), Sho'rchi (125,5 % ga) va Muzrabet (125,2 % ga), Qumqo'rg'on (121,7 % ga) tumanlarida kuzatildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi va o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,6 % ga oshishini ta'minladi. O'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 46,8 % tashkil etmoqda.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 1994 tadan ortiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 395 tasi yangi sanoat korxonalari tashkil etadi.

Ulardan qariyib 15,4 % Termiz shahri, Angor, Denov, Sariosiyo, Termez va Sho'rchi tumanlariga to'g'ri keladi.

davomi

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik




Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini amalga oshirish – sanoat ishlab chiqarishi hajmlari o'sishining omillaridan biridir

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish hajmlarining o'sishi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, korxonalarning ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo'lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'sishining va import tovarlari qisqarishining omillaridan biri hisoblanadi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida Mahalliylashtirish dasturiga kiritilgan korxonalar tomonidan 341,4 mln. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, bularning barchasi hududiy loyihalardan iborat.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy ko`rsatkichlari



Sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishini rag`batlantiruvchi omillar

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash dasturlarini amalga oshirilishi, viloyat sanoatining rivojlanishiga imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, sanoatning yanada barqaror rivojlanishi uchun quyidagilar zarur:

- ilg`or mahalliy texnologiyalarni ishlab chiqish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish;
- tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini shakllantirish va amalga oshirishda mahalliylashtirish darajasini to`xtatib turuvchi kamchiliklarni bartaraf etish hamda yangi ish o`rinlarini yaratishga to`sqinlik qiluvchi zarur tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar importini qisqartirish;
- mavjud imkoniyatdan kelib chiqib, ma'naviy eskirgan, ko'p harajatli texnologiyalar o'rniga yangi, zamonaviy texnologiyalardan foydalaniib korxonaning to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: Z.Turanzarov
Aloqa telefoni: (0371) 230-80-46
(0376) 223-07-24